

## O'QUVCHILARDA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHGA OID AYRIM TAVSIYALAR

Salimova Gulnoza Alibek qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU talabasi

E.mail: [iamsalimova@gmail.com](mailto:iamsalimova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15471533>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish va lug'atlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga oid ayrim tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari o'quvchilarning yosh va qiziqishlariga mos ravishda tanlangan matnlar asosida so'z boyligini oshirishga doir metodik takliflar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Lug'at, lug'atshunoslik, metod, "Kundalik daftar", "A4" metodi, "Mazmun asosida tahlil qilish" metodi, "Krossvord" metodi.

Lug'atshunoslik tilshunoslikning muhim sohalaridan bo'lib, u tilning asosiy birliklaridan biri bo'lgan so'zni chuqur o'rganadi. Lug'atshunoslik so'zlar ma'nosi, kelib chiqishi, shakli, ishlatilish darajasi va ular orasidagi munosabatlarni tadqiq etadi. Bu fan nafaqat alohida so'zlar, balki frazeologik birliklar, sinonimlar va antonimlarni, terminlar hamda shevaga xos so'zlarni ham o'rganish bilan shug'ullanadi.

Shuningdek zamonaviy leksikologiya kompyuter lingvistikasi, avtomatik tarjima, sun'iy intellekt va ta'lim texnologiyalari bilan ham bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda lug'atshunoslikning ahamiyati til o'rganish, tarjima, matn tahlili, jurnalistika va adabiyotshunoslik sohalarida ham muhim sanaladi.

Hozirgi rivojlanish jarayonida lug'atshunoslikning to'xtab qolmasligi, zamon bilan hamnafas yuksalishi uchun astoydil harakat qilinmoqda. Maktab darsliklaridagi lug'atlarning berilish shakli ham o'zgarib bormoqda. Avvalgi darsliklarda lug'atlar ayrim sahifalardagina va alohida olingan holda berilgan bo'lsa, bugungi zamonaviy darsliklarda yangi so'zlarning berilish shakllari ham o'zgargan. Hozir darsliklarda o'qib tushunishga doir matnlar tarkibida ham yangi so'zlar ma'nolari sharhlab ketilmoqda va bu yangi so'zlarning o'quvchilar e'tiboridan chetda qolmasligiga sabab bo'lyapti. Bugungi globallashuv davrida nafaqat hayotimiz, turmushimizda yangiliklar balki tilimizga ham yangi so'zlar kirib kelmoqda. O'quvchi yoshlarni ushbu yangi so'zlar ma'nosi bilan tanishtirish va ularni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish bugungi ona tili fani o'qituvchilarining vazifasidir.


"Lug'at ustida ishlash, o'quvchilarni ona tilining lug'at boyligi bilan tanishtirish, lug'at sostavidagi so'zlardan nutqda to'g'ri foydalanish, o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtirish borish, adabiy tilga xos bo'lmagan so'zlarni tugata berish kabi maqsadlarni nazarda tutadi. Lug'at ustida ishlash, birinchidan, ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, o'quvchilarning fikr doirasini kengaytiradi, ikkinchidan, o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtiradi, uchinchidan, ona tili darslarida grammatik, orfografik, punktuatsion qoidalar ustida ish olib borilar ekan, lug'at ustida ishlashni ham unutmaslik kerak" [3; 77-b].

Darsliklarda asosan zamonaviy kasblar, zamonaviy atamalar berilayotganining asosiy sababi ham o'quvchilarni ular bilan tanishtirish va zamonaviy atamalar yuzasidan o'z qarashlarini shakllantirishdan iboratdir. Ba'zan maktablarda dars jarayonida darslikda berilgan yangi so'zlarga yetarlicha e'tibor berilmasdan, asosiy e'tibor mashqlarni bajarish va qoidalar so'rashga qaratiladi. Bu o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash ko'nikmasining

yetarlicha rivojlanmay qolishi va yangi soʻzlarning aniq maʼnosini oʻzlashtirilmay qolishlariga olib kelishi mumkin.

Dars davomida oʻquvchilar qarshisidan chiqayotgan yangi soʻzlarni turli metodlar va usullar yordamida oʻquvchilarga yetkazsak maqsadga muvofiq boʻladi. Masalan, “Soʻz daraxti” metodidan foydalanib oʻquvchilarda lugʻat boyligini oshirishni koʻrib chiqamiz. Dorskada daraxt rasmi chiziladi va unga yangi oʻrgangan soʻz yoziladi. Daraxt atrofiga shoxlar chizilib, shoxlardan biriga sinonim, biriga antonim, yana biriga soʻz turkumi va oxirgisiga ishlatilish oʻrni yoziladi. Misol uchun **yaxshi** soʻzini yangi oʻrganilgan soʻz deb olsak, aʼlo sinonimga, yomon antonimga, sifat soʻz turkumiga yozilib oxirgi shoxga yaxshi soʻzi qatnashgan gap yoziladi. Ushbu topshiriqni oʻquvchilar navbat bilan doskaga chiqqan holda bajarishadi. Ushbu metoddan, asosan, koʻp maʼnoli soʻzlarni oʻrganishda foydalanish mumkin.

Quyida ushbu metodga namuna keltirilgan.



Berilgan daraxtdagi har bir katakchaga xuddi namunadagidek soʻz, uning soʻralgan maʼnolari yozib chiqiladi.

Yoki lugʻatlar bilan ishlash jarayonida “Kundalik daftar”[2; 74-b] metodi ham yaxshi samara beradi. Ushbu metodda oʻquvchilarning har biriga yon daftarcha tarqatiladi va darslar davomida qarshisidan chiqqan yangi soʻzlarni maʼnosi bilan birga yozib olgan holda ushbu soʻzlarni oʻzlashtirish topshiriladi. Har hafta yoki har oy yakunida daftarchaga toʻplangan soʻzlar yuzasidan mitti nazoratcha oʻtkazilib, oʻquvchilarning shu bir oy vaqt davomidagi oʻrgangan yangi soʻzlarini baholab borish mumkin.

6-sinflar uchun mo'ljallangan yangi darslikda zamonaviy kasblar, atamalar keltirilgan bo'lib, ushbu so'zlar ma'nolari ham lug'at shaklida, ham o'qib tushunish uchun berilgan matnlar tarkibida mazmunan sharhlanish orqali berilgan. O'qib tushunish matnlarida kelgan yangi so'zlarning ma'nolarini o'quvchilarga yetkazish uchun yuqoridagi kabi metodlardan foydalanish mumkin. Quyida shunday bir nechta metodni tavsiya qilib o'tamiz.

6-sinf darsligida berilgan "Bolalar televizorni qancha vaqt ko'rishlari mumkin?" [1; 56-b] matnida "akkomodatsiya" atamasining qanday ma'no ifodalashi keltirilgan. O'qituvchi ushbu atama ma'nosini o'quvchilarga yaxshiroq yetkazish maqsadida "Mazmun asosida tahlil qilish" metodidan foydalanishi mumkin. Ya'ni, o'qituvchi aynan shu so'z ishtirokida bir nechta gap aytadi va o'quvchilar gap mazmunidan kelib chiqqan holda so'zning taxminiy ma'nosini aytishga harakat qilishadi. Oxirida o'qituvchi o'quvchilarni so'zning kitobdagi izohi bilan tanishtiradi. Yoki aynan ushbu matnda "stimul" so'zi keltirilgan bo'lib, ushbu so'zning ma'nosi matnda ham, alohida shaklda ham berilmagan. Uning ma'nosi matndan so'ng berilgan savol-javob qismida savollar ichida keltirib o'tilgan. O'qituvchi matn doirasida savol-javob qilish bilan birgalikda ushbu so'z ma'nosini o'quvchilarga yetkazishi kerak.

Aynan ushbu sinfda "Eksport yoki import" [1; 99-b] matni keltirilgan. Matnda ikkala atamaning ham izohi to'liq yoritilgan. Ushbu matn o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi nafaqat o'quvchilar bilan matn ustida ishlaydi, balki o'quvchilarda ushbu ikki atama yuzasidan tasavvur uyg'otishga ham harakat qiladi. Matn ustida ishlab bo'lingandan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning mavzuni qay darajada o'rganganliklarini tekshirish maqsadida biror metod yoki usuldan foydalansa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Na'muna sifatida "A4" metodini olsak. Bugun keng tarqalgan metodlardan biri bo'lgan "A4" metodi oddiy metod bo'lsada yaxshi natija beradi. Ustozlarimiz o'quvchilarning qatorlariga "A4" formatidagi oddiy qog'ozni tarqatadi va o'quvchilarning har biri mavzu yuzasidan bittadan jumla orqali eslarida qolgan ma'lumotlarni yozishadi. Oxirgi ishtirokchilar doskada jumalarni o'qishadi. Xato va kamchiliklar bo'lsa to'g'irlanadi. Qaysi qatordagi o'quvchilar ko'proq ma'lumot yozgan bo'lishsa o'sha guruh ishtirokchilarining barchasi rag'batlantirilib baholanishadi. Bu o'quvchilarning fanga nisbatan qiziqishini ma'lum miqdorda oshiradi.

6-sinf ona tili darsligida "Iqlim o'zgarishining oqibatlarini" [1; 36-b] nomli o'qib tushunishga mo'ljallangan matn berilgan. Ushbu matnni to'liqroq tushuntirish maqsadida o'qituvchi darsdan oldin matndagi so'zlar ishtirokida krossvord tuzib kelishi va matn tahlilidan so'ng ushbu krossvordni o'quvchilarga tarqatib belgilangan vaqt davomida to'ldirib tekshirish, shu orqali xotirga muhrlash mumkin. Bu metod "Krossvord"metodi [2; 128-b] bo'lib, krossvord orqali o'quvchilar matnda o'rgangan so'zlarini yanada mustahkamlashlari mumkin. Matnda berilgan "global isish", "bitim imzolash", qurg'oqchilik" jumalari va atamalarining ma'nosi o'quvchilarda shu kunga qadar bir qadar muammolarni keltirib chiqargan bo'lsa, krossvord metodi orqali mustahkamlash natijasida ushbu so'zlar bo'yicha muammolari qolmaydi va mazmunni to'laroq o'rganishadi.

Bir so'z bilan aytganda o'quvchilar bilan lug'atlar ustida ishlash jarayoniga alohida e'tibor berish va yangi so'zlarning ma'nolarini aniq yetkazish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan bo'lib, ustozlar o'quvchilarni qiziqtirish orqali ularga yangi so'zlarni o'rgatishlari,

o'quvchilarning lug'at boyliklarini kengaytirishlari lozim. Bu ona tili va adabiyot o'qituvchilariga qo'yilayotgan asosiy talablardan biridir.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 6-sinf darslik.- T.: 2022.- 36- 56- 99-b.
2. Avlayev O.U. Ta'lim metodlari.- T.: Navro'z, 2017.-74-75-128-b.
3. Ravshanov M. Ona tili darslarida sistem-semantik mashqlar bajarish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish. Ta'lim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari.- T.: O'qituvchi,1998.- 76-77-b.